

Arxiv xodimlari uchun seminar

O'zR FA O'zbekiston tarixi davlat muzeyida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi bilan hamkorlikda vazirlik, idoralar va muassasalarning idoraviy arxivlarining mas'ul xodimlari uchun seminar-trening tashkil etildi.



Unda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-oktyabrdagi "Qatag'on qurbonlarining merosini yanada chuqur o'rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoyishida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash masalalari ko'rib chiqildi. Tadbirda Fanlar akademiyasi, "O'zarxiv" agentligi, O'zbekiston milliy kutubxonasi va bir qator tashkilotlarning mas'ul xodimlari ishtirok etdi.

